
The Interpretation of Ibn Hazm al-Andalusi's Scholarly Heritage in Western Historiography: George Sarton's Perspectives

Abdurahimov Javlonbek Bahodirjon ugli⁶

abdurahimovjavlonbek11@gmail.com

Base doctorate,

Fergana State University

Annotation *This article analyzes George Sarton's role in the study of the scientific legacy of Abū Muḥammad 'Alī ibn Aḥmad ibn Ḥazm from historiographical and source-critical perspectives. The study examines Sarton's assessments of Ibn Ḥazm's personality, scholarly legacy, and place in the history of Islamic science as presented in his Introduction to the History of Science. Ibn Ḥazm is considered one of the leading intellectual figures of the eleventh-century Islamic West, and particular attention is given to his application of Aristotelian logic to the study of Islamic disciplines, including jurisprudence and theology. The article also discusses Ibn Ḥazm as one of the Muslim scholars who defended the concept of the Earth's spherical shape on the basis of religious, logical, and natural-scientific arguments. Assessments of Ibn Ḥazm's scholarly legacy are comparatively analyzed through the works of George Sarton, Fuat Sezgin, Reynold Nicholson, and Ignaz Goldziher.*

Keywords *George Sarton, scientific methodology, Ibn Ḥazm, Zāhiri school, Islamic science, logic, jurisprudence, theology, Islamic West*

Ibn Hazm al-Andalusiyl ilmiy merosining G'arb tarixshunosligidagi talqini: Jorj Sarton qarashlari

Abdurahimov Javlonbek Bahodirjon o'g'li

abdurahimovjavlonbek11@gmail.com

Tayanch doktorant,

Farg'ona davlat universiteti

Annotatsiya *Ushbu maqolada Abu Muhammad Ali ibn Ahmad ibn Hazm ilmiy merosini o'rganishda Jorj Sartonning tutgan o'rnini tarixshunoslik va manbashunoslik nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Tadqiqotda J. Sartonning "Introduction to the History of Science" ("Fan tarixiga kirish") asarida Ibn Hazmning shaxsiyati, ilmiy merosi hamda islom ilm-fani tarixidagi o'rniga berilgan baholar o'rganiladi. Maqolada Ibn Hazm XI asr musulmon G'arbining yirik mutafakkirlaridan biri sifatida talqin qilinib, uning Aristotel mantiqini islomiy ilmlar, jumladan, huquqshunoslik va ilohiyot masalalarini tadqiq etishda qo'llagani tahlil etiladi. Shuningdek, uning Yerning sharsimonligi haqidagi qarashni diniy, mantiqiy va tabiiy-ilmiy dalillar asosida himoya qilgan musulmon olimlaridan biri ekaniga e'tibor qaratiladi. Ibn Hazm ilmiy merosiga berilgan baholar J. Sarton, F. Sezgin, R. Nikolson va I. Goldsiher tadqiqotlari asosida qiyosiy tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar *Jorj Sarton, ilmiy metodologiya, Ibn Hazm, zohiriylik mazhabi, islom ilm-fani, mantiq, huquqshunoslik, ilohiyot, musulmon G'arbi*

⁶ Abdurahimov J.B. — ORCID: 0009-0000-2702-7447

Интерпретация научного наследия Ибн Хазма аль-Андалуси в западной историографии: взгляды Джорджа Сартона

Абдурахимов Джавлонбек Баходиржон угли
abdurahimovjavlonbek11@gmail.com
Докторант (PhD),
Ферганский государственный университет

- Аннотация** В статье с историографической и источниковедческой точек зрения анализируется роль Джорджа Сартона в изучении научного наследия Абу Мухаммада Али ибн Ахмада ибн Хазма. Рассматриваются оценки личности, научного наследия и места Ибн Хазма в истории исламской науки, представленные в труде Дж. Сартона *Introduction to the History of Science* («Введение в историю науки»). Ибн Хазм характеризуется как один из крупнейших представителей интеллектуальной культуры мусульманского Запада XI века. Особое внимание уделяется использованию им аристотелевской логики при изучении исламских наук, в том числе вопросов правоведения и богословия. Рассматриваются также его аргументы в защиту представления о шарообразности Земли, основанные на религиозных, логических и естественно-научных доказательствах. Оценки научного наследия Ибн Хазма подвергаются сравнительному анализу на основе исследований Джорджа Сартона, Фуата Сезгина, Рейнольда Николсона и Игнаца Гольдциера.
- Ключевые слова** Джордж Сартон, научная методология, Ибн Хазм, захиритский мазхаб, исламская наука, логика, правоведение, богословие, мусульманский Запад

Kirish

Abu Muhammad Ali ibn Ahmad ibn Hazm. Sarton olimni 994-yilda Qurtobaning eng nufuzli oilalaridan birida Manta Lishon tug'ilganligini yozadi. Yoshligida adabiyot, she'riyat, falsafa, mantiq va tarix fanlarini chuqur o'rgangan. Umrining oxiriga kelib, Ibn Hazmning keskin tili va boshqa mazhab vakillari bilan doimiy murosasizligi uni jamiyatdan uzib qo'ygan. Umrining so'nggi yillarini o'z qishlog'ida tanholikda, faqat ilm bilan band bo'lib o'tkazgan va 1064-yilda vafot etgan.

Ahmad ibn Hazm ilmiy merosini o'rganishda Jorj Sarton (1927) o'rni alohida ahamiyat ega. Sarton XX asr fan tarixi asoschilaridan biri sifatida musulmon G'arbining eng mashhur olimlari qatorida Ahmad ibn Hazmni ham alohida o'rganib, tahlil

qilgan. Uning "Introduction to the History of Science" ("Fan tarixiga kirish") asari Ahmad ibn Hazm merosini G'arb fan tarixshunosligida tizimli baholashga xizmat qilgan muhim tadqiqotlardan biridir. Sarton o'z asarida ibn Hazmni dinlararo munosabatlarni o'rganishda o'z davrining juda xolis, tanqidiy va ilmiy yondashuv ega va dinlar tarixini tahlil qilishda tahliliy usulni qo'llagan birinchi olimlardan biri sifatida ko'rsatadi (Sarton, 1927).

Maqolaning asosiy maqsadi Ahmad ibn Hazm ilmiy merosini o'rganishda Sarton ilmiy xizmatlarini ochib berishdan iborat. Bunda Sartonning Ahmad ibn Hazmga bergan bahosi, uning mantiq va huquqshunoslik tarixidagi o'rnini tadbiq etishdagi usuli, Ahmad ibn Hazm asarlarining islom va G'arb olamiga ilmiy muhitiga ko'rsatgan ta'siri haqidagi qarashlari

va F. Sezgin, R. Nikolson va I. Goldssiher tadqiqotlari bilan bog'liqligi tahlil qilinadi.

Adabiyotlar tahlili va Metodlar

Ahmad ibn Hazm ilmiy merosini J. Sarton talqinida o'rganishda birlamchi tarixshunoslik manbasi sifatida Jorj Sartonning "Introduction to the History of Science" ("Fan tarixiga kirish") asari asosiy o'rin tutadi. Mazkur asarda Sarton Ahmad ibn Hazmni musulmon G'arbining eng yirik huquqshunosi, islom ilmiy tafakkuri tarixidagi eng yorqin va o'ziga xos mutakallim, faylasuf, shoir va tarixchi sifatida tahlil qiladi.

Ahmad ibn Hazm va uning "Tavq al-hamoma" asarini bir qancha ilmiy maktablar hamda olimlar tomonidan tadqiq qilingan. Xususan, An'anaviy G'arb klassik Sharqshunoslik maktabi vakillari tomonidan o'rganilgan. XIX asrning buyuk islomshunosi bo'lib, uning "The Zahiris: Their Doctrine and Their History" asari Ibn Hazm va zohiriya mazhabini akademik darajada o'rgangan dastlabki fundamental ish hisoblanadi (Goldziher, 1971).

XX asrning mashhur turk olimi Fuat Sezgin o'zining "Geschichte des arabischen Schrifttums" asari orqali Ahmad ibn Hazm va uning ilmiy merosini tahlil qilgan. Islom adabiyoti va tasavvufi bo'yicha yirik mutaxassis hisoblangan Reynold Nikolson esa Ibn Hazmni adabiy va falsafiy g'oyalariga e'tibor qaratgan. Nikolson Ibn Hazmning asarlarini o'rta asrlar Ispaniyadagi islom madaniyatini ifodalovchi asar deb talqin qiladi.

Maqolada tarixshunoslik tahlili, manbashunoslik yondashuvi, qiyosiy-tahliliy metod va retseptsiya tarixi usullaridan foydalanildi. Tarixshunoslik yondashuvi Sartonning Ibn Hazm haqidagi qarashlarini XX asr fan tarixi metodologiyasi doirasida baholash imkonini berdi. Manbashunoslik usuli Ibn Hazm asarlari va ularning lotin, arab hamda zamonaviy ilmiy talqinlarini tahlil qilishda qo'llanildi. Qiyosiy metod esa Sarton qarashlarini Sezgin, Nikolson va Goldssiher tadqiqotlari bilan solishtirishga xizmat qildi.

Natijalar va Muhokama

Jorj Sarton (1927) fan tarixini paydo bo'lishidagi asosiy shaxslardan biri hisoblanadi. Uning o'ziga xos ilmiy uslubi faqatgina G'arb tarixini tadqiq qilish bilan chegaralanmay, yunon, lotin, hind, fors va arab ilmiy an'analari ham o'rganishdab iborat bo'lgan. Shu borada Sartonning Ahmad ibn Hazm haqida bergan tahlillari musulmon G'arqi ilmiy merosini o'rganishda amalga oshirilgan muhim ishlardan biri sifatida tan olinadi.

Uning otasi Ahmad ibn Said Xalifa Mansur ibn Abu Amir saroyida yuqori lavozimli vazir bo'lgan. Ibn Hazm yoshligini saroy haramida, ayollar qurshovida o'tkazgan. Bu unga ayollar psixologiyasini chuqur tushunish va insoniy munosabatlarning nozik jihatlarini o'rganish imkonini bergan. Keyinchalik uning "Tavq al-hamama" (Kaptar bo'yni) asaridagi psixologik kuzatishlar aynan shu davrdagi tajribalariga tayangan holda yozadi. U o'z davrining eng yaxshi muallimlari qo'lida tahsil olgan. Ammo otasining vafoti va xalifalikning inqirozi uning hayotini butunlay o'zgartirib yuborgan (Sarton, 1927).

XX asrning mashhur ingliz sharqshunos olimlaridan biri A.J. Arberry (1953): "Tavq al-hamama" ("Kabutar bo'yni") asarini ingliz tiliga tarjima qilgan. U Ibn Hazmni arab adabiyotining eng nozik va chuqur psixologik tahlilchi shoirlaridan biri sifatida e'tirof etadi. Uning fikricha, Ibn Hazm shunchaki huquqshunos emas, balki inson qalbini, muhabbat va his-tuyg'ularni eng go'zal ifodalay olgan san'atkordir.

Ibn Hazmning nasabi haqida ba'zi tarixchilar uni forsiy emas, balki mahalliy ispan millatiga mansub ekanligini, nasabnomasi esa keyinchalik islomlashtirilganligini ta'kidlashadi. Ammo mahshur olimlardan biri Migel Asin Palasios uning forsiy kelib chiqishini haqiqatga yaqin deb hisoblaydi. Olim haqida esa "Ibn Hazmning shaxsiy hayoti uning intellektual hayotining ko'zguvidir. U murosasiz aristokrat, otashin oshiq va yolg'iz qolgan haqiqat izlovchisidir" deb fikr bildiradi (Sarton, 1927).

U yoshligida saroydagi bir kanizakka ko'ngil qo'ygan, biroq ijtimoiy to'siqlar va siyosiy g'alayonlar tufayli bu muhabbat fojiaiy yakunlangan. Olim o'zining muhabbat haqidagi traktatida ushbu shaxsiy iztiroblarini umuminsoniy psixologik tahlillarga bog'lab yuborgan. U o'zining "Tavq al-hamama" asarida sevgini "ruhlar o'rtasidagi bog'liqlik" deb hisoblagan va insoniy tuyg'ularni ochiq-oydin yozishdan uyalmagan kam sonli o'rta asr ulamolaridan biri bo'lgan. Sartonning fikricha, bu asar inson tuyg'ulari, sevgi va uning turlarini tahlil qilishda kuzatuvchanlikning cho'qqisidir. U asarni o'rta asrlar ritssarlik adabiyoti va psixologiyasini tushunish uchun kalit deb biladi (Sarton, 1927).

Mashhur fransuz islomshunosi Arnaldez Ibn Hazm (1956)ning ilmiy tizimini tushunish uchun avvalo musulmonlar duch kelgan ilmiy muammolarni chuqur anglash kerakligini ta'kidlaydi. U Ibn Hazmning zohiriylik mazhabini tizimlashtirishdagi rolini uning eng yaxshi ishi deb biladi. Ibn Hazm o'z davridagi turli mazhablar o'rtasidagi ixtiloflarni kuzatib, ularni hal qilishga harakat qilgan. "Kitob al-Fisal" asari aynan shu maqsadga bag'ishlangan asar hisoblanadi.

Sezgin Ibn Hamz (1967)ni islomiy ilmlarning eng sermahsul va tizimli olimlaridan biri sifatida ko'radi. Sezgin Ibn Hazmning fiqh, hadis, tarix va aqida sohasidagi asarlarini qo'lyozma manbalari bilan solishtirib, uning ilmiy metodologiyasini juda yuqori baholaydi.

Sarton Ibn Hazmning Zahiriy mazhabini himoya qilishi va mantiqqa tayanishini alohida ta'kidlaydi. U Aristotel mantiq'ini islom huquqshunosligiga tatbiq etish orqali an'anaviy taqlidga qarshi chiqqanini aytadi. Sarton uni aqidatik qoliplarni yorib chiqqan mustaqil fikrli olim sifatida ko'radi.

Vengriyalik mashhur sharqshunos Ignas Goldtsiyer (1971) Ibn Hazmni islom huquqi tarixidagi eng inqilobiy shaxs sifatida ko'radi. Olim Ibn Hazmning "Zahiriy" (matnga qat'iy amal qilish) maktabini shunchaki qotib qolgan aqida emas, balki "taqlid"ga (ko'r-ko'rona ergashishga) qarshi isyon deb baholaydi. Ibn

Hazm diniy matnlarni tahlil qilishda Aristotel mantiqini qo'llab, islom huquqini ortiqcha subyektivlikdan tozalashga harakat qilgan.

Ingliz sharqshunosi Reynold Nikolson (1930) Ibn Hazmning adabiy qudrati va uning xarakteridagi qat'iyatga urg'u beradi. Ibn Hazmning tilini shafqatsiz darajada o'tkir deb ta'riflaydi. Olimlar orasida yurgan "Ibn Hazmning tili va Hajjojning qilichi bir xil" degan naqlga tayanib, uning munozara san'atida tengsiz bo'lganini yozadi. "U o'z g'oyalari yo'lida quvg'inlarga va asarlarining yoqib yuborilishiga chidagan ma'naviy qahramondir".

Fuat Sezgin esa Ibn Hazmning tabiatshunoslik va astronomiyaga oid qarashlarini yuqori baholaydi. Sezgin o'z asarida Ibn Hazmning yo'qolgan asarlari ro'yxatini va saqlanib qolgan qo'lyozmalarini sinchiklab o'rganib, uning asarlari keyingi davr ilm-fani uchun poydevor bo'lib xizmat qilganini isbotlaydi. Sezgin (1967) nazarida Ibn Hazm – islom olamining ilmiy mustaqilligini, mantiqiy qat'iyatini va ilmiy universalligini o'zida mujassam etgan siymodir. Uning merosi shunchaki tarixiy yodgorlik emas, balki islom ilm-fani metodologiyasining tirik poydevoridir.

Shu bilan birga, Sarton yondashuvining ma'lum chegaralari ham mavjud. Birinchidan, Sartonning Ibn Hazmning asosan ilmiy merosiga doir ma'lumotlarni bergan. Ikkinchidan, Sarton Ibn Hazm merosini baholashda o'z davrigacha mavjud bo'lgan nashrlar, tarjimalar va ikkilamchi adabiyotlarga tayanishga majbur edi. Uchinchidan, Ibn Hazmning ilmiy merosini o'rganish Sarton davrida hali to'liq hal etilmagan edi.

Shunday bo'lishiga qaramay, bu chegaralar Sartonning ilmiy ahamiyatini kamaytirmaydi. Aksincha, ular Sarton tadqiqotlarining keyingi fan tarixshunosligi uchun o'ziga xos zamin yaratganini ko'rsatadi. Sarton Ibn Hazm merosini yunon, arab, fors va lotin ilmiy an'analari bilan uzviy davomiylikda baholadi. Bu esa o'rta asr musulmon G'arbi fan tarixini zamonaviy ilmiy muomalaga kiritishda muhim metodologik qadam bo'ldi.

Ibn Hazm ilmiy merosini o'rganishda Jorj Sartonning o'zni bir necha asosiy jihatda namoyon bo'ladi.

Birinchidan, Sarton Ibn Hazmni musulon G'arbining buyuk huquqshunosi sifatida emas balki, ma'lumotlarni tizimlashtiruvchi metodolik va tarixiy mantiqiylik dahosi sifatida tahlil qiladi. Boshqa sharqshunos olimlar esa, Ibn Hazmni faylasuf, shoir va inson psixologiyasi bo'yicha o'rta asrlarning eng yirik mutaxassisi sifatida tahlil qiladi.

Ikkinchidan, Sarton Ibn Hazmni o'z davridagi an'anaviy o'zidan oldingi manbalarga ko'r-ko'rona ergashishdan ko'ra, musulmon tafakkurini turli xurofotlardan tozalashga bel bog'lagan shaxs sifatida talqin qilgan. U o'zidan oldingi ulamolar va zamondoshlarining qarashlarini qattiq tanqid qilgan, bu esa islomiy ilmlar rivojida muhim bahs-munozaralarga sabab bo'lgan.

Uchinchidan, Ibn Hazm islom ilm-fanini Yevropaga ta'sir ko'rsatishda Farg'oniy va Xorazmiy kabi asosiy vosita bo'lib xizmat qilmasada, uning tomonidan yaratilgan ko'plab asarlar keyinchalik, turli fan sohalari bo'yicha Yevropaning rivojlanishiga o'zining salmoqli hissasini qo'shgan. Ayniqsa uning psixologiyaga oid asarlari alohida ahamiyatga egadir.

Xulosa

Ibn Hazm al-Andalusiy ilmiy merosining G'arb tarixshunosligidagi talqini, ayniqsa Jorj Sarton qarashlari tahlili shuni ko'rsatadiki, XX asr G'arb ilm-fan tarixshunosligida musulmon olimlarining jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan hissasini ilmiy asosda baholashga intilish kuchaygan. Sarton Ibn Hazmni nafaqat faqih va mutakallim, balki ensiklopedik bilim sohibi, mantiq, tarix, adabiyot, fiqh va dinshunoslik

sohalarida sermahsul ijod qilgan universal olim sifatida e'tirof etadi. Uning asarlarining ko'pligi, mavzularining xilma-xilligi va ilmiy uslubining izchilligi G'arb sharqshunoslari tomonidan alohida qadrlangan.

Tadqiqot natijalari Jorj Sartonning Ibn Hazm haqidagi qarashlari keyingi G'arb tadqiqotchilari, jumladan, Ignaz Goldziher, Migel Asin Palacios, Rojer Arnaldez, Artur Jon Arberry va Fuat Sezgin kabi olimlarning ilmiy izlanishlariga muhim metodologik asos bo'lib xizmat qilganini ko'rsatadi. Ular Ibn Hazmning zohiriylik ta'limoti, mantiqiy tafakkuri, diniy-falsafiy qarashlari hamda adabiy merosini turli nuqtai nazardan tadqiq etib, uning islom ilmiy tafakkuri rivojida o'rnini yanada chuqurroq yoritganlar.

Shuningdek, tahlillar G'arb tarixshunosligida Ibn Hazm shaxsiyati va ilmiy merosi ko'pincha ob'ektiv hamda manbashunoslik tamoyillari asosida o'rganilganini, ayrim masalalarda esa sharqshunoslik an'anasiga xos metodologik cheklovlar va bahsli talqinlar ham uchrashini ko'rsatdi. Shunga qaramay, Jorj Sartonning ilmiy merosi Ibn Hazmni jahon ilm-fani tarixining ajralmas vakillaridan biri sifatida tanitishda muhim o'rin egallaydi.

Xulosa qilib aytganda, Ibn Hazm al-Andalusiy ilmiy merosini G'arb tarixshunosligi, xususan Jorj Sarton qarashlari asosida o'rganish Sharq va G'arb ilmiy an'analari o'rtasidagi intellektual aloqalarni chuqurroq anglash, islom sivilizatsiyasining jahon ilm-fani taraqqiyotiga qo'shgan hissasini xolis baholash hamda zamonaviy tarixshunoslik tadqiqotlarini yangi manbalar va metodologik yondashuvlar bilan boyitish uchun muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

References:

1. Arberry, A. J. (1953). *The ring of the dove: A treatise on the art and practice of Arab love by Ibn Hazm*. Luzac & Company.
2. Arnaldez, R. (1956). *Grammaire et théologie chez Ibn Hazm de Cordoue: Essai sur la structure et les conditions de la pensée musulmane*. Vrin.



3. Asín Palacios, M. (1927). *Abenházam de Córdoba y su historia crítica de las ideas religiosas* (Vol. 1). Real Academia de la Historia.
4. Goldziher, I. (1971). *The Zāhirīs: Their doctrine and their history: A contribution to the history of Islamic theology* (W. Behn, Trans.). E. J. Brill. 28–35, 110. (Original work published 1884)
5. Nicholson, R. A. (1930). *A literary history of the Arabs*. Cambridge University Press.
6. Sarton, G. (1927). *Introduction to the history of science* (Vol. 1: *From Homer to Omar Khayyam*). Williams & Wilkins Company.
7. Sezgin, F. (1967). *Geschichte des arabischen Schrifttums* (Band 1). E. J. Brill.